

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FIL.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

JUMAYEVA KAMOLA SHAVKAT QIZI

XOQONIY SHIRVONIY IJODIDA QASIDA JANRI
(kompozitsion xususiyatlari, motivlari, badiiyati)

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 821.222.1:82-1
КБК: 83.3(0)9:84 -5
J-88

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of the abstract of the doctoral dissertation (PhD)
in philology sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Jumayeva Kamola Shavkat qizi

Hoqoniy Shirvoniy ijodida qasida janri (kompozitsion xususiyatlari,
motivlari, badiiyati) 3

Jumaeva Kamola Shavkat qizi

The genre of the qasida in the works of Khaqani Shirvani (compositional
features, motifs, poetics) 23

Жумаева Камола Шавкат кизи

Жанр касыды в творчестве Хакани Ширвани (композиционные
особенности, мотивы, художественность) 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works
Список опубликованных работ 47

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FIL.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

JUMAYEVA KAMOLA SHAVKAT QIZI

XOQONIY SHIRVONIY IJODIDA QASIDA JANRI
(kompozitsion xususiyatlari, motivlari, badiiyati)

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Fil.1780 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy Kengash veb sahifasida (www.tsuos.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Imomnazarov Muhammad Sultanovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Sodiqov Qosimjon Pozilovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Ochilov Ergash Zokirovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat_____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; E-mail: info@tsuos.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatilgan.

(2025-yil “___” _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.M.Mannonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

N.R.Ismatullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filol.fan.b.fals.d. (PhD), dotsent

B.To‘xliyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida sharq mumtoz soʻz sanʼati va uning yetakchi namoyandalari ijodi katta qiziqish bilan oʻrganilgan. Bugungi kunda poetika, mumtoz adabiyotni oʻrganish, adabiy-estetik tafakkur taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan shoirlar lirik merosi, ijod laboratoriyasi sirlari va turli janrlar rivojiga qoʻshgan hissasini oʻrganish kun tartibiga qoʻyilgan masalalardan biri hisoblanadi.

Dunyo adabiyotshunosligida mumtoz sheʼriyati bilan tanilgan Eron shoirlari qasida janrida mahorat koʻrsatib, jahon adabiyoti erishmagan natijalarni qoʻlga kiritgan. Qasida janr sifatida alohida ahamiyatga ega, chunki unda tarixiy shaxs va amaldorlar madh etilibgina qolmay, oʻz davrining dolzarb mavzulari koʻtarilgan, jamiyatda yuz bergan voqealar tarixga muhrlangan. Xoqoniy Shirvoniy qasidanavislikda mahorat koʻrsatgan forsiy zabon shoirlardan biri boʻlib, shoir ijodida bu janrning tutgan oʻrni, uning qalamiga mansub qasidalarining tarkibiy tuzilishi, ulardagi mazmun va shakl uygʻunligi, muallifning badiiy mahoratini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etish ishning zaruriyatini belgilaydi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng koʻlamli islohotlar davrida xorijiy adabiyotlarni oʻqitish sifatini yaxshilash, ilmiy tadqiqotlar koʻlamini kengaytirishga katta eʼtibor berilmoqda. Shu jumladan, Oʻzbekiston va Eronning hamkorlik aloqalari yangi bosqichga koʻtarilib, ikki davlat orasida ilm-fan, madaniyat, adabiyot sohasidagi munosabatlar tobora mustahkamlanib bormoqda. Zero, respublikamizda “oliy taʼlimni rivojlantirish boʻyicha ilgʻor xorijiy tajribani tadqiq qilish va ularning natijalarini ommalashtirish; ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish”¹ vazifalari asosida samarali islohotlar olib borilmoqda. Hozirga qadar eronshunoslikda qasida janrining nazariy asoslari, mavzu koʻlami, tarkibiy qismlari, badiiyati masalalari oʻrganib kelingan. Mazkur tadqiqot Xoqoniy Shirvoniy ijodida qasida janrining kompozitsion xususiyatlari, motivlari va badiiyatini oʻrganishga yoʻnaltirilgan boʻlib, mavzuni monografik planda oʻrganish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 – 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “Oʻzbekiston Respublikasida xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-sonli “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmoni, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi “Maʼmuriy islohotlar doirasida oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-200-sonli qarori. <https://lex.uz>.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida qasidaning kelib chiqishi, mavzular ko‘lami, janrning asosiy shakllari haqida ko‘p manbalarda ma’lumotlar uchraydi. Yevropa sharqshunoslari S.Stefan va Sh.Kristoferlar “Musulmon Osiyo va Afrikada qasida” nomli monografiyalarida qasidani qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik tahlil asosida o‘rganishgan². Fors mumtoz adabiyotida qasida janriga bag‘ishlangan so‘ngi fundamental tadqiqot rus sharqshunosi M.Reysner tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, u o‘z tadqiqotida X-XIII asr boshlaridagi fors liro-epik she‘riyati: mumtoz qasidaning genezisi va evolyutsiyasi masalasi doirasida nazariy tadqiqotlar olib borgan³. Eronlik olim S. Kozruniy fors adabiyotida hijriy VII-VIII asrlarda qasida va uning mavzular ko‘lamini tadqiq etgan⁴. S. Zarqoniy, M. G‘arib, M. Muhdaviylar⁵ forsiyzabon shoirlar ijodini tadqiq etar ekan, qasidaning shakli va turi borasida nazariy qarashlarini bayon etgan. Qasidaning paydo bo‘lishi, bu janrning asosiy mavzulari va unda vazn, qofiya, radif masalalari eronshunos olimlar U.Tohirov, M.Raxmonov, U.Kazakovalarning dissertatsiyalarida atroflicha tahlil qilingan⁶. O‘zbek adabiyotshunosligida M.Qodirova, G.Boltaboyeva, N.Bekova, M.Hasanovalarning⁷ dissertatsiyalarida turkiy shoirlar ijodida qasida janrining turli aspektlari o‘rganilgan.

Qasidaning nazariy asoslariga oid so‘ngi yillarda olib borilgan izlanishlar S. Ojegova, A. Abdurahmonov, I. Ikromov, Sh. Dovruqov, Sh. Gaforov, M. Isfaxoniy, Sh. Jozeylinlar⁸ o‘zlari o‘rgangan forsiyzabon shoirlar ijodida qasidaning o‘rni, uslubi,

² Stefan S. Christopher Sh. Qasida poetry in islamic Asia and Africa. – Leiden: Brill, 1996. – 491 p.

³ Рейснер М. Персидская лироэпическая поэзия X – начала XIII века. Генезис и эволюция классической касыды. – Москва: Наталис, 2006. – 423 с.

⁴ سيداحمد حسینی کازرونی. قصیده، معانی و سیر تحول آن تا سده هفتم و هشتم هجری در ادب فارسی // کانفرانس بین المللی شرقشناسی، تاریخ و ادبیات پارسی. – ایران، ۱۳۹۵. – ص. ۱۸-۵.
⁵ سیدمهدی زرقاتی، مصطفی غریب، مجتواد مهدوی. نقش سنائی در تحول قصیده فارسی // مجله‌ی شعرپژوهی (بوستان ادب). – شیراز، ۱۳۹۴. – ص. ۴۹-۷۶.

⁶ Тоиров У. Касыда в персидско-таджикской классической литературе: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 1990. – 22 с.; Рахмонов М. Дидактическая касыда в персидско-таджикской литературе XIII-XIV веков: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 1994. – 27 с.; Казакова У. Касыда и её традиции в персидско-таджикской поэзии XIII-XIV веков: Дис. ... докт. филол. наук. – Душанбе, 2006. – 353 с.

⁷ Қодирова М. Касыды Алишера Фани: Дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1969. – 254 с.; Болтаева Г. Алишер Навоий “Фусули арбаа” қасидалар туркумининг манбалари ва ғоявий-бадий таҳлили: Филол. фан. номз. ... дис. – Бухоро, 1999. – 130 б.; Бекова Н. Алишер Навоийнинг ҳамд ғазаллари ва “Рух ул-қудс” қасидасининг бадиияти: Филол. фан. номз. ... дис. – Тошкент, 2003. – 137 б.; Хасанова М. XV аср туркий шеърятда қасида жанри: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дис. – Самарқанд, 2018. – 150 б.;

⁸ Ожегова С. Проблема изучения касыд Али Аухад ад-Дина Анвари: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 1993. – 17 с.; Абдурахмонов А. Қасыда и ее традиции в творчестве Малек-ош-шоаро Бахара: Дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 1972. – 196 с.; Икромов И. Роль Анвари в историческом процессе развития жанра касыды: Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Душанбе, 1992. – 58 с.; Давруков Ш. Жанровое многообразие поэтического наследия Усмона Мухтори Газневи и его вклад в развитии жанра касыды: Дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2015. – 231 с.; Гафоров Ш. Азраки Хирави и художественно-эстетические особенности его касыд: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2011. – 22 с.; Esfahani M. Philosophical and mystical dimensions in the thought and writings of Mir Findiriski (ca. 970-1050/ 1560-1640) with special reference his Qasidah Hikmiyah (philosophical ode): Diss. of Doctor of Philosophy. – Canada: University of McGill, 2003. – 314 p.; Jocelyn

shoirlarning qasidanavislikdagi mahoratini o'rganib nomzodlik va doktorlik tadqiqotlarini yaratgan.

Sharqshunos olimlar E.Braun, A.Arberi, Y.Ripka, G.Ousley, Ch.Riyu, R.Gould, I.Zand, K.Zaleman, Y. Bertels, M.Reysner, Y.Akimushkina, A.Abdulloev, N.Komilov, Sh.Shomammedov, M.Imomnazarov, E.Ochilovlar⁹ Xoqoniy Shirvoniylar hayoti va ijodiy faoliyatini atroflicha o'rgangan.

Hozirgi kungacha Xoqoniy Shirvoniylar ijodi ustida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ulardan biri tojik olimi T. Keldiyorov tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, dissertatsiya hind sharhnavisi Alaviy Shodiobodiyning Xoqoniy Shirvoniylar qasidalarining sharhi va Xoqoniy she'rlarining badiiyati masalalariga bag'ishlangan¹⁰. Boshqa bir tojik olimasi M.Sharifovanning "Arab adabiyotining Xoqoniy Shirvoniylar ijodiga ta'siri" nomli dissertatsiyasida shoirlarning arab tilidagi merosi va arab shoirlarining Xoqoniy ijodiga tasirini o'rgangan¹¹. Ozarbayjonlik olimasi E. Zeynalova "Xoqoniy Shirvoniylar arab tilidagi merosi" nomli dissertatsiyasida shoirlarning arab tilidagi ijodini o'rgangan¹². Rus sharqshunosi Y.Akimushkina "XI-XIV asrlarda fors adabiyotida habsiya lirikasi (genезis va evolyutsiya)" mavzusidagi dissertatsiyasining to'rtinchi bobidagi ikki bo'limda Xoqoniy habsiyalarida Shirvondagi tutqunlik davri motivlarining germeneytik tahlilini amalga oshirgan¹³. Amerikalik sharqshunos R. Gould "O'rta asr fors she'riyatining siyosiy estetikasi, 1100-1200" mavzusidagi doktorlik ishining ikkinchi bobida Xoqoniy Shirvoniylar habsiyalaridagi zindon muhiti xususiyatlarini qisman o'rgangan¹⁴.

Xoqoniy Shirvoniylar ijodining ayrim masalalari eronlik olimlarning dissertatsiyalarida ham o'z aksini topgan. Ch. Rasul shoir qasidalarini leksik-semantik

Sh. Transient pleasures and perpetual risks: The integration of fulfillment and loss in the classical Arabic and persian panegyric qasida: Diss. of Doctor of Philosophy. – Princeton: University of Princeton, 2002. – 452 p.

⁹ Browne E. A Literary history of Persia. – London: Cambridge University Press, 1928. – 580 p.; Aberly A. Classical Persian literature. – London: George Allen & Unwin LTD, 1958. – 470 p.; ۵۷۵ ص. – تاريخ ادبيات ايران. – يان ريپکا و ديگران. تهران، ۱۳۷۱. Ouseley G. Biographical notices of Persian poets; with critical and explanatory remarks. – London: Oriental Translation Fund, 1846. – 624 p.; Rieu Ch. Catalogue of the Persian Manuscripts in the British Museum. – London: British Museum, 1881. – 464 p.; Gould R. The Persian prison Poem Sovereignty and the political Imagination. – London: Edinburgh University Press, 2021. – 312 p.; Занд И. Шесть веков славы: очерки персидско-таджикской литературы. – Москва: Наука, 1964. – 252 с.; Залеман К. Четверостишия Хакани. – Санкт-Петербург, 1875. – 186 с.; Бертелс Е. История персидско-таджикской литературы. – Москва: Наука, 1960. – 561 с.; Рейснер М. Персидская лироэпическая поэзия X – начала XIII века. Генезис и эволюция классической касыды. – Москва: Наталис, 2006. – 423 с.; Акимушкина Е. Тюремная лирика в персидской литературе XI – XIV вв.: генезис и эволюция: Дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2004. – 319 с.; Абдуллоев А. Адабиёти форсу тожик дар нимаи дуоми асри XI ва аввали асри XII. – Душанбе, 1986. – 262 с.; Classics of Azerbaijan Literature. <https://azarbaijan.az>; (Manbaga 04.11.2024. da murojaat qilindi); Комилов Н. Хизр чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005. – 320 б.; Шомухамедов Ш. Форс мумтоз адабиёти. – Тошкент, 2013. – 194 б.; Имомназаров М. X-XV асрлар форс мумтоз шеърияти. – Тошкент, 2013. – 310 б.; Ochilov E. San'atda benazir, hikmatda beqiyos / "Turkiy adabiyot durdonalari", 100 jildlik, 57-jild. – Toshkent, 2022. – B. 28 – 37; Ochilov E. Alisher Navoiy va Xoqoniy Shirvoniylar / "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzuidagi 8-uluslararo konferansi materiallari. – Toshkent – Boku, 2023. – B. 313 – 317.

¹⁰ Келдиёров Т. "Шарҳи қасоиди Хоқоний" – и Алавий Шодиободий ва масъалаҳои маърифати бадеии ашъори Хоқоний: Diss. ... канд. филол. наук. – Хужанд, 2000. – 165 с.

¹¹ Шарифова М. Влияние арабской литературы на творчество Хакани Ширвани: Дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2018. – 167 с.

¹² Zeynalova E. Haqani Shirvaninin əbəddilli yaradiciliği: Doktoru ... tezi. – Bakı, 2021. – 172 s.

¹³ Акимушкина Е. Тюремная лирика в персидской литературе XI – XIV вв.: генезис и эволюция: Дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2004. – 319 с.;

¹⁴ Gould R. The Political Aesthetic of the Medieval Persian Poem, 1100-1200: Diss. of Doctor of Philosophy. – New York: University of Columbia, 2013. – 321 p.

jihaddan tadqiq etgan¹⁵. Q.Yoqub Xoqoniy devonida tashbih she'riy san'ati va uning balog'atiga oid tadqiqot olib borgan¹⁶. H.Ansoriy Xoqoniy she'riyatining lingvopoetik xususiyatlarini o'rgangan¹⁷. H.Ahmad shoir she'rlarini leksik jihatdan tekshirgan¹⁸. S.Vardanjaniy Xoqoniy Shirvoniyni she'riyatdagi tasavvuri va XII asr oxirigacha uning ta'sirini ustida ilmiy izlanishlar olib borgan¹⁹. A. Isfaxoniy g'azal taraqqiyoti va Xoqoniy Shirvoniyni unga qo'shgan hissasiga to'xtalgan²⁰.

Eronlik olim Z.Sajjodiy shoir devoni, maktublar to'plami, she'riy saylanmasi, masnaviysini tadqiq etib, sharh va eslatmalar yozgan²¹. M. Turkiy Xoqoniyning hayoti, shaxsiyati, she'riyati haqida faktlarga asoslangan biografiyasini yaratgan²². I. Maryam "Xoqoniyning madh qasidalarini"²³, H. Ali, F. Azmansheriy "Xoqoniy qasidalarida iyhom va tanosib"²⁴; H. Hasan, M.Ali "Xoqoniy qasidalaridagi paradokslar"²⁵ nomli ilmiy maqolalarda shoir qasidalaridagi maqto'v, she'riy san'at va ziddiyatlarni atroflicha o'rgangan. Ozarbayjonlik olimlar M.Rahim, A. Vahid, M. Muborizlar Xoqoniy Shirvoni adabiy merosini ozar tiliga tarjima qilganlar²⁶. Yuqorida zikr etilgan tadqiqotlar jahon adabiyotshunosligida bevosita Xoqoniy Shirvoni ijodiga bag'ishlangan bo'lsa-da, ularda shoir qasidalarining kompozitsion xususiyatlari, motivlari va badiiyati yetarli darajada o'rganilmaganligini ko'rsatadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining "Sharq mamlakatlari adabiyoti", "Adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari" va "Sharq mamlakatlari adabiyotida janr va uslub masalalarini o'rganish" mavzulari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Xoqoniy Shirvoni qasidalarining kompozitsiyasi, mavzular qamrovi, asosiy motivlari, obrazlar olami, badiiy xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Xoqoniy Shirvoni mansub ijtimoiy-adabiy muhitning shoir ijodiga ta'sirini o'rganish;

shoir qasidalarining o'ziga xos jihatlari va uning janr rivojiga qo'shgan hissasini aniqlash;

¹⁵ Chaharqani منتظر رسول. فرهنگ تحلیلی قصاید خاقانی شروانی: دکتر ی. تهران، ۱۳۷۸.

¹⁶ قلمی فرد یعقوب. فرهنگ تشبیهات و استعارات دیوان خاقانی و تحلیل بلاعی آن: دکتر ی. تهران، ۱۳۸۰.

¹⁷ حمیدرضا انصاری. آشنایی زبانی و فراهنجاری های زبانی در شعر خاقانی: دکتر ی. تهران، ۱۳۹۴.

Ansori H. Deformillarization and linguistic metanorms in Khaqani poetry. <https://theses.iaus.ac.ir> (Manbaga 04.02.2025. da murojaat qilindi).

¹⁸ خواجه ایم، احمد. فرهنگ تحلیلی اشعار خاقانی. دکتر ی. تهران، ۱۳۸۰.

¹⁹ Vardanjani S. Imagination of Khaqani in poems, its influence and effects, until the end of the 6th century: Diss. of Doctor of Philosophy. – Mashhad: Ferdowsi University of Mashhad, 2017. <https://jpl.ut.ac.ir/article> (Manbaga 07.12.2024 da murojaat qilindi).

²⁰ Isfahoni.A. Development of the ghazal and Khaqani's contribution: Diss. of Doctor of Philosophy. – Cambridge: University of Harvard, 2007. – 573 p.

²¹ <https://khaganisharvani.blogfa.com> (Manbaga 04.10.2024. da murojaat qilindi).

²² محمد رضا ترکی. سر سخنان نغز خاقانی. تهران، ۱۳۹۸. ص. ۶۰۱.

²³ ایرانمنش مریم. قصاید مدحی خاقانی // نثر پژوهی ادب فارسی. تهران، ۱۳۸۹. ص. ۱۸-۱.

²⁴ حیدری علی، فروغی پویا اعظمشهریه. ابهام، تناسب در قصاید خاقانی // شعر پژوهی (بوستان ادب - علوم اجتماعی و انسانی) - شیراز، ۱۳۹۰. ص. ۶۶-۴۵.

²⁵ حسین حسن پورآلاشتی، محمد علی باغبان. متناقض نمایی در قصاید خاقانی // نشریه دانشکده ادبیات و علوم انسانی. تبریز، ۱۳۷۶. ص. ۱۸-۱.

²⁶ Classics of Azerbaijan Literature. <https://azarbaijan.az.>; (Manbaga 04.11.2024. da murojaat qilindi).

Xoqoniy Shirvoniylar qasidalarining uslubiy-kompozitsion xususiyatlarini tadqiq etish;

shoir qasidalaridagi asosiy motivlarni muayyanlashtirish;

Xoqoniy Shirvoniylar qasidalarida qoʻllangan badiiy tasviriy vositalar tahlili orqali shoir mahoratining ayrim qirralarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Xoqoniy Shirvoniylarning 1997-yil Tehronda nashr etilgan devoni tarkibidagi qasidalari tanlandi²⁷.

Tadqiqotning predmetini fors mumtoz sheʼriyati kontekstida Xoqoniy Shirvoniylar qasidalarining tarkibiy tuzilishi, motivlari, badiiyati tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy, biografik, germeneytik, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XII asr Shirvon adabiy muhitining oʻziga xos xususiyatlari va uning Xoqoniy Shirvoniylarning shoir sifatida shakllanishida koʻrsatgan taʼsirini oʻrganish orqali biografik tahlil natijalariga binoan buyuk soʻz sanʼatkori ijodiy evolyutsiyasining uch davri aniqlangan;

Xoqoniy Shirvoniylarning qasida janrini shakl va mazmun jihatidan kengaytirgani va chuqurlashtirgani, ular bir necha matlaʼdan iboratligi, shoirning oʻziga xos murakkab tili, ijodi sharhtalabligi va ularning xos auditoriyaga moʻljallanganligi hamda shoir “Mirʼot us-safo” qasidasi bilan tatabbuʼnavislik anʼanasini rivojlantirganligi dalillangan;

shoir devonidagi koʻp qasidalar kompozitsion jihatdan “qasidai tom”ga mansubligi, ularda madh mavzu yetakchilik qilishi, bu qasidalarning nasib qismlarida tong tasvirining ustuvorligi, qasidalar kompozitsiyasida badiiy nutqning tavsiflash, vasf etish, dialog shaklidan va turli detallardan foydalanganligi hamda diniy mavzulardagi qasidalarda mumtoz adabiyotdagi anʼanaviy adabiy qonun-qoidalarga rioya etganligi isbotlangan;

Xoqoniy Shirvoniylarning qasidalarida uchraydigan motivlarning statistik tahlili natijasida diniy mavzulardagi qasidalarda “ilohiy ishq”; madh mavzularidagi qasidalarida “adolat”; shikoyat mavzularidagi qasidalarda “doʻst”; qasida shaklidagi marsiyalarda “koʻz yosh” motivlarining faol ekanligi va ular shoir niyatini ochishda hal qiluvchi omillardan biri ekanligi asoslangan;

katta hajmli (210 bayt) qasidalarda qofiyaning deyarli takrorlanmaganligi, qasidalarda rujuʼ, savolu javob, tajohul ul-orif, tansiq us-sifot, kitobat va boshqa sanʼatlardan foydalanganligi, bir paytda bir necha sanʼatlardan baravar qoʻllanganligi hamda “goʻzallik, hijron, oshiqlik, umr boqiylik, adolatparvarlik, poklik, nodirlik, zohidlik, saxovatpeshalik” kabi fazilatlar paygʻambarlar va qushlarning ramziy obrazlari orqali ifodalanganligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Xoqoniy Shirvoniylar hayoti biografik, ijodiga taʼsir qilgan ijtimoiy-adabiy muhit va tarixiy jarayonlar qiyosiy-tarixiy tahlil asosida oʻrganildi. Shoir adabiy merosi va unda qasidaning oʻrni, soni, hajmi hamda qasidalarning mumtoz devonchilik anʼanalariga mosligi yuzasidan tegishli xulosalar chiqarildi. Shoir ijodi xorijiy va mahalliy

²⁷جهانگیر منصور. دیوان خاقانی شروانی. - تهران، ۱۳۷۵. - ۷۶۳ ص.

materiallarga tayangan holda tadqiq etilib, zarur o‘rinlarda ularga munosabat bildirildi hamda Xoqoniy Shirvoniy qasidalarining kompozitsion xususiyatlari, motivlari germenevtik, statistik tahlil usullaridan foydalangan holda tadqiq etildi.

Dissertatsiyadagi Xoqoniy Shirvoniy ijodida qasida janrining kompozitsion xususiyatlari, motivlari, badiiyati bilan bog‘liq amaliy natijalardan “Adabiyotshunoslik terminlar lug‘ati” mavzusidagi amaliy loyihaning fors adabiyotshunosligi atamalarini yoritishda qo‘llanilgan. Tadqiqotning ilmiy-nazariy xulosalari qiyosiy adabiyotshunoslik, tili o‘rganilayotgan mamlakat adabiyotidan darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratish, shuningdek, fors adabiyotini o‘rganishning barcha bosqichlari uchun manba bo‘lib xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma‘lumotlarning ilmiy manbalarda asoslanganligi, tanlangan manbaning tadqiqot mavzusiga mosligi, qiyosiy-tarixiy, biografik, germenevtik, statistik tahlillar asosida nazariy xulosalar chiqarilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati fors mumtoz adabiyotini o‘rganish, xususan qasida janrini tadqiq etishdagi nazariy xulosa va umumlashmalarning hamda mavjud ma‘lumotlarning yangi ilmiy-nazariy tavsiyalar asosida boyitilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qasida janri poetikasi, kompozitsion xususiyatlariga oid amaliy va tahliliy materiallardan “O‘rganilayotgan til mamlakati adabiyoti”, “Sharq xalqlari adabiyoti poetikasi”, “Sharq adabiyotida she‘riy tizmlar”, “Mutaxassislikning nazariy masalalari” “Sharq adabiyoti jahon adabiyoti kontekstida” kabi fanlarni o‘qitish, filologiya yo‘nalishi bakalavriyat va magistratura bosqichlarida maxsus hamda tanlov fanlar tashkil etish, darslik va qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xoqoniy Shirvoniy ijodida qasida janri, ularning kompozitsion xususiyatlari, motivlari va badiiyati tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar va xulosalar asosida:

shirvon adabiy muhiti va Xoqoniy Shirvoniy poetikasi haqidagi nazariy mulohazalardan, qasidaning badiiyati, shoir qasidalarining mavzulari, ulardagi asosiy motivlar, qasidalaridagi she‘riy san‘atlar va ramzlarning badiiy talqini haqidagi tahliliy-tanqidiy natijalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Adabiyotshunoslik kengashi yig‘ilishida, adabiy-ma‘rifiy tadbirlarda, “Onajonim she‘riyati” to‘garagi mashg‘ulotlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 17-fevraldagi 01-03/86 - son ma‘lumotnoma). Natijada Yozuvchilar uyushmasi tomonidan tashkil etilgan adabiy kecha, adabiy-ma‘rifiy tadbirlarining ilmiy-amaliy ahamiyati oshishida hamda shoir ijodida qasida janrining ahamiyatini tushunishga amaliy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Xoqoniy Shirvoniy ijodida qasida janrining kompozitsion xususiyatlari, motivlari, badiiyati bilan bog‘liq amaliy natijalardan 2023-yil 11-iyundagi 26-IB qarori bilan amalga oshirilgan “Adabiyotshunoslik terminlar lug‘ati” (sharq tillari kesimida) mavzusidagi amaliy loyihaning fors adabiyotshunosligi atamalarini yoritishda qo‘llanilgan (Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 2025-yil 15-martdagi 01-04/686-sonli ma‘lumotnoma). Tadqiqot natijalariga tayangan holda “tashbib”,

“gurezgoh”, “madh”, “duo”, “maqta’ ”, “matla’ ”, “ruju’ ”, “tansiq us-sifot”, “savolu javob” kabi terminlar lug‘atdan joy olgan.

Xoqoniy Shirvoniyni hayoti, ijodi, qasidalarida qo‘llangan asosiy motivlar va ularning badiiyatiga bag‘ishlangan tahliliy fikrlar hamda nazariy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston” teleradiokanali tomonidan tayyorlangan “G‘azal bo‘stoni”, “Adabiy jarayon”, “Jahon adabiyoti” radioeshittirishlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 4-fevral 05-09-102-son ma’lumotnoma). Natijada Xoqoniy Shirvoniyni hayoti va ijodi bilan o‘zbek teletomoshabinlarini yaqindan tanishtirish imkoniyati ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari muallifning 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 5 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi konferensiyalardagi chiqishlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 16 ta ilmiy maqola nashr etilgan. Shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, ulardan 4 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 124 sahifani tashkil etadi. Ish so‘ngida tegishli ilovalar keltirildi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “Kirish” qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obyekti tavsiflangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Xoqoniy Shirvoniyni qasidanavis shoir**” deb nomlanib, ikki faslga ajratilgan. Dastlabki fasl “*Afzaliddin Xoqoniy va XII asr Shirvon adabiy muhiti*” deb nomlanib, unda shoirning hayoti, ijtimoiy-adabiy muhitning shoir ijodiga ta’siri o‘rganilgan.

Afzaliddin Badil Ibrohim bin Ali Xoqoniy Shirvoniyni (1120) XII asrda Ozarbayjonning Shirvon o‘lkasidagi oddiy oilada dunyoga kelgan. Taniqli Eron olimi Zabihulloh Safoning ta’kidlashicha, shoirning “mashhurroq nomi Afzaliddin bo‘lib, zamondoshlari uni shu ism bilan yod etgan. Tazkiranavislar esa “Ibrohim” deya e’tirof etgan bo‘lsa-da, Xoqoniy Shirvoniyni o‘zini Badil deb atagan”²⁸.

Shoirning buyuk iste’dod sohibi bo‘lib yetishishida o‘z davrining mashhur tabibi va faylasufi Kofiuddin Umar ibn Usmonning kattagina ta’siri bo‘lgan. U Xoqoniy Shirvoniyni amakisi bo‘lib, shoir undan arab tili, adabiyotini o‘rgangan va 25 yoshgacha uning tarbiyasini olgan. Shoirning ikkinchi ustoz Abul A‘lo Ganjaviyni edi.

²⁸ذبيح الله صفا. تاريخ ادبيات در ايران. جلد دوم. - تهران، ۱۳۷۱. - ص. ۷۷۶.

Xoqoniy Shirvoniy ijodiy faoliyatining g‘oyaviy-badiiy xarakteri u yashagan davr ijtimoiy-siyosiy sharoiti, adabiy muhit an‘analari bilan bog‘liq bo‘lgan. Umuman olganda, shoir hayoti va ijodiy faoliyatini shartli ravishda uch davrga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq. Har bir davrdagi ijtimoiy-siyosiy va tarixiy jarayonlar shoir ijodiga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmagan.

Ijodiy faoliyatining birinchi davri bevosita shoirning yoshlik chog‘lari, Shirvonshohlar saroyiga kelishi, bu yerdagi adabiy muhit ta‘sirida iste‘dodining gullagan davrini qamrab oladi. Yosh iste‘dod sohibi Shirvonshohlar saroyida bo‘lganida saroy muhiti va undagi hashamatdan ilhomlanib sermahsul ijodiy faoliyat olib borgan. Bu davrda u Shirvonshohlar va boshqa davlat arboblarni maqtab madhiyalar yozgan “*maddoh*” shoir timsolida gavdalangan. Shoir devonidan joy olgan madhiya ruhidagi qasidalar, she‘r, g‘azal, ruboiylar ushbu fikrning isbotidir.

Shoir ijodiy faoliyatining ikkinchi davri *20 yoshli o‘g‘li, turmush o‘rtog‘idan judo bo‘lib, xastaliklarga duchor bo‘lgan*²⁹ va hayotning turli zarbalariga uchragan pallalarni qamrab oladi. Shuningdek, u bu davrda ikki marta zindonband etilgan. Uning sabablari manbalarda turlicha ko‘rsatilgan. Xususan, “*Shirvonshohlar ijozatisiz safarga chiqqanligi*”³⁰, “*ochiq fikrliligi*”³¹, “*axiylik masalasida*”³² va “*Shirvonshohning maxsus topshirig‘ini bajarishdan bosh tortganligi uchun zindonband etilganligi*”³³ bilan bog‘liq qarashlar bor.

Xoqoniy Shirvoniy ijodiy faoliyatining ikkinchi davrida turli qiyinchiliklarga uchragan bo‘lsa-da ijod qilishdan to‘xtab qolmagan. Shoir hatto zindonband qilingan bo‘lsa-da, ijodiy faoliyatini davom ettirgan. Devonidan joy olgan mashhur “*habsiyalar*” (*zindonbandlik she‘rlari*) bunga isbotdir. Shuningdek, saroy muhitini tark etib, o‘z davrining mashhur shaharlari Xuroson, Bag‘dod, Iroq, Madina va boshqa shaharlarga sayohat qilishi ham shoir ijodida yangi qirralarning kashf etilishiga sabab bo‘lgan. Jumladan, shoir bu safarlar davomida “*تحفة العراقيين*” — “*Ikki Iroq tuhfası*” masnaviysini yozishga muvaffaq bo‘lgan. Xoqoniy Shirvoniy ijodining bu davrida “*isyonkor, sayohatchi*” shoir sifatida namoyon bo‘ladi.

Shoir ijodiy faoliyatining uchinchi davrini taxminan ikkinchi marta haj ziyoratini ado etib, yurtiga qaytgan davri bilan bog‘lash mumkin. Hayotidagi yo‘qotishlar va musibatlar shoirni ruhiy tushkunlikka tushishiga va tarkidunyo qilishiga sabab bo‘lgan. Xoqoniy Shirvoniy hayotining bu davrida diniy, tasavvufiy, falsafiy yo‘nalishda ijod qilgan. Shoir ijodini ayniqsa uning qasidalarini diniy, tasavvufiy, falsafiy qarashlardan ayro holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ijodining balog‘atga yetgan bu davrida u “*donishmand*” shoir timsolida ko‘zga tashlanadi.

Xoqoniyning shaxsiyati xususida so‘z yuritganda, uning zakiy, nuqtadon va o‘z davrining donishmandlaridan bo‘lganligini qayd etish kerak. Shuningdek, haqiqatparvarlik, adolatparvarlik Xoqoniyga xos sifatlardandir. Zero, shoir ochiq fikrliligi uchun zindonband etilganligi haqidagi qarashlar yo‘q emas.

²⁹Yan Ribiqa va Diggran. Tarix adbiyat iran. – تهران، ۱۳۷۱. – ص. ۲۸۹.
³⁰تاجماه اصفی شیرازی. خاقانی، حیات، زمان و محیط او (بررسی کتاب) // گلستان. ۱۹۹۷. – ص. ۱۶۹.
³¹Yan Ribiqa va Diggran. Tarix adbiyat iran. – تهران، ۱۳۷۱. – ص. ۲۸۹.
³²تاجماه اصفی شیرازی. خاقانی، حیات، زمان و محیط او (بررسی کتاب) // گلستان. ۱۹۹۷. – ص. ۱۶۹.
³³عباس ماهیار. شرح مشکلات خاقانی: خارخار بند و زندان. ص - ۳.

Ushbu bobning ikkinchi fasli “*Xoqoniy Shirvoniy ijodida qasida janri va uning o‘rganilishi*” deb nomlangan. Faslda qasida, uning nazariy asoslari, bu janrning shoir ijodida tutgan o‘rni, devondagi qasidalarining soni, hajmi, mavzular ko‘lami va shoir ijodining o‘rganilganlik darajasi tadqiq etilgan.

Xoqoniy Shirvoniy ijodida qasidaning alohida o‘rni bor. Shoir merosini qasidalarsiz tasavvur qilish mumkin emas. U bu janrda sermahsul ijod etgan. Zabihulloh Safo Xoqoniy Shirvoniyni “*buyuk qasidanavis shoirlardan*”³⁴ desa, Yan Ripka “*Xoqoniy madhiyago‘y shoir*”³⁵ deya qayd etgan.

Xoqoniy Shirvoniy devonida 132 ta qasida, 401 ta g‘azal, 351 ta ruboiy, 7 ta tarji‘band, 9 ta tarkibband, turli mavzularga bag‘ishlangan 388 ta she‘r, 9 ta arabcha qasida va qit‘alar o‘rin olganligi aniqlandi. Shoirdan arab va ajam diyorlarida mashhur bo‘lgan “*Ikki Iroq tuhfas*” nomli masnaviy va 60 ta munshaot ham meros qolgan.

Tadqiqot obyekti bo‘lgan devonda ا (alif) harfi bilan tugallanuvchi 11 ta, ب (ba) harfi bilan tugallanuvchi 4 ta, ت (ta) harfi bilan tugallanuvchi 11 ta, د (dol) harfi bilan tugallanuvchi 28 ta, ر (ro) harfi bilan tugallanuvchi 5 ta, س (sin) harfi bilan tugallanuvchi 1 ta, ش (shin) harfi bilan tugallanuvchi 5 ta, ق (qof) harfi bilan tugallanuvchi 1 ta, ك (kof) harfi bilan tugallanuvchi 1 ta, م (mim) harfi bilan tugallanuvchi 20 ta, ن (nun) harfi bilan tugallanuvchi 18 ta, و (vov) harfi bilan tugallanuvchi 3 ta, ه (hoje hav-vaz) harfi bilan tugallanuvchi 14 ta, ی (yo) harfi bilan tugallanuvchi 10 ta qasida o‘rin olgan.

Shoir devonidagi qasidalar mavzusiga ko‘ra mumtoz devonchilik an‘analariga muvofiq joylashtirilgan. Ya‘ni devonning ا (alif) harfi bilan tugallanuvchi qasidalar turkumidagi birinchi qasida ma‘no va mazmuniga ko‘ra tavhidiy bo‘lib, u “*جوشن در آ صورت برون کن در صف مردان در آ* – *surat sovutin yechib, mardlar safiga qo‘shil*” misrasi bilan boshlanadi. Ikkinchi va uchinchi qasidalar payg‘ambar (s.a.v) madhida, to‘rtinchi na‘t, beshinchi “*در پند و اندرز و معراج حضرت ختمی مرتبت*” – *Pand-u nasihat va so‘nggi payg‘ambar me‘roji xususida*” nomli qasidalar, shundan so‘ng, bu turkumda faxriya, shikoyat, mamduh madh etilgan qasidalar va qasida shaklidagi marsiyalar o‘rin olgan.

Devondagi 132 ta qasidaning faqat bittasiga sarlavha qo‘yilmagan, qolganlari sarlavhali bo‘lib, tadqiqot davomida eng ko‘p baytli qasidalar mamduh madhida yozilganligi va ular 90, 122, 150, 210 baytdan iboratligi aniqlandi. Xususan, “*در پند و اندرز و ستایش رکن الدین مفتی خوی و رکن الدین عالم ری و تاج الدین رازی ابن امین الدین*” – *Pand-nasihat va mufti, raylik olim Rukniddin va Tojiddin Rozi ibn Aminiddin*” madhida yozilgan qasida 210 baytdan iborat.

Xoqoniy Shirvoniy ijodi asrlar davomida tor auditoriyaga ma‘lum bo‘lgan va kamchilik tomonidan o‘rganilgan. Abdurahmon Jomiy ta‘kidlaganidek, shoir murakkab usulda ijod etgan³⁶. Shu bois XVI asrda Xoqoniy she‘rlarining lug‘ati tuzilgan bo‘lib, unda shoir qasidalaridagi 400 so‘zning ma‘nosi sharhlangan³⁷. Hind sharhnavisi Alaviy Shodiobodiy (XVI asrning o‘rtalari XVII asr) shoirning bir qancha

³⁴ذبیح الله صفا. تاریخ ادبیات در ایران. جلد دوم. تهران، ۱۳۷۱. ص. ۷۸۲.

³⁵یان ریپکا و دیگران. تاریخ ادبیات ایران. تهران، ۱۳۸۱. ص. ۲۸۱.

³⁶Комилов Н. Хизр чашмаси. – Тошкент, 2005. – Б. 258.

³⁷O‘sha manba. – B. 27.

qasidalari, ulardagi diniy, tasavvufiy, tib, nujum va boshqa sohaga doir atamalarni sharhlagan³⁸.

Xoqoniy Shirvoniylarning ijodiga qiziqish va uni o'rganish darajasini qasidalariga tatabbular yozilganligidan ham bilish mumkin. Tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov Xoqoniy Shirvoniylarning mashhur "Mir'ot us-safo" qasidasini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Mazkur qasidaga Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Soib Tabriziy, Mirzo Bedil va boshqa ellikdan oshiq shoirlar tatabbu' yozganlar³⁹. Shuningdek, Alisher Navoiy fors tilidagi ikki qasidasi, ya'ni "Nasim ul-xuld"ni Xoqoniy Shirvoniylarga, "Minhoj un-najot" esa Anvariylar va Xoqoniyga tatabbu' sifatida yaratgan⁴⁰.

Tadqiqotning "**Xoqoniy Shirvoniylarning qasidalarining kompozitsiyasi va motivlari**" deb nomlangan ikkinchi bobi ham ikki fasldan tashkil topgan. Bobning birinchi fasli "*Xoqoniy Shirvoniylarning qasidalarida kompozitsiya masalasi*" deb nomlangan. Ushbu faslda diniy, madh, shikoyat mavzularidagi qasidalar va qasida shaklidagi marsiyalarning kompozitsion xususiyatlari tadqiq etilgan.

Qasida aniq badiiy tamoyillar asosida tuzilgan va o'ziga xos kompozitsion xususiyatlarga ega. "*U odatda g'azal yoki qit'adan ko'ra to'liqroq, baytlar soni chegaralanmagan, bir necha qismlardan iborat kompozitsiya sifatida tasvirlangan va u qismlarning har biri turli mavzularga bag'ishlangan bo'ladi*"⁴¹. Qasida lirik muqaddima "nasib" (tashbib yoki tag'azzul), qochish ma'nolarini anglatuvchi "gurizgoh", asosiy qism (madh), xulosa sifatida "duo" va ba'zi qasidalarda shoir maqsadi bayon etilgan talab qismdan tashkil topadi.

Kompozitsion jihatdan to'liq qasida "qasidai tom" deb nomlanib, u nasib, gurizgoh, madh, duo qismlarning barchasini o'z ichiga oladi. To'liq bo'lmagan qasida esa "qasidai mujarrada" deb atalib, unda yuqorida sanab o'tilgan qismlarning ba'zilari bo'lmashligi mumkin. To'liq qasida ba'zi manbalarda "*qisqa bo'lmagan qasida*"⁴² deb qayd etilgan.

Xoqoniy Shirvoniylarning devonidagi aksariyat qasidalar qurilish jihatidan qasidaning barcha komponentlarini o'z ichiga oluvchi "*qasidai tom*"ga mansub, nasib qismida tong tasviri ustuvorligi aniqlangan. Tadqiqot davomida nasibda sharob maqtalangani, javobsiz muhabbat qalamga olingani, tabiat manzalari tasvirlangani, ishq va sharob mavzulari birgalikda uyg'unlashgan holda qalamga olingani ham kuzatildi.

Xoqoniy Shirvoniylarning qasidalari ham mumtoz adabiyotda mavjud adabiy qonun-qoidalardan xoli emasligi, tavhid, payg'ambar madhi, na'ti, pand-nasihat, hikmat va ba'zi madh mavzulariga bag'ishlangan qasidalarda Qur'ondagi qissa qahramonlariga talmeh, oyatlarga iqtiboslar qilinganligi aniqlangan.

Devondagi dastlabki qasida "Ollohning *در یکتاپرستی و ستایش حضرت خاتم الانبیاء*" yagonaligi va hazrati hotami anbiyo madhida" deb nomlanib, mazmuniga ko'ra tavhid,

³⁸Келдиёров Т. "Шарҳи қасоиди Хоқоний" – и Алавий Шодиободий ва масъалаҳои маърифати бадеий ашъори Хоқоний: Diss. ... канд. филол. наук. – Хужанд, 2000. – 165 с.

³⁹ Ochilov E. Alisher Navoiy va Xoqoniy Shirvoniylar // "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzuidagi 8-uluslararo konferansi materiallari. – Toshkent – Boku, 2023. – B. 314.

⁴⁰ Комилов Н. Фақр нури порлаган қалб. – Тошкент: Маънавият, 2001. – Б. 61.

⁴¹Wright C. The divan of Manuchiri Damghani: Diss of Doctor of Philosophy in arts and sciences. – Ann Arbor: University of Michigan, 1971. – P. 184.

⁴²سیداحمد حسینی کازرونی. قصیده، معانی و سیر تحول آن تا سده هفتم و هشتم هجری در ادب فارسی. ایران – ۱۳۹۵. ص – ۷

Oloho taolo yagonaligi va uning rasuli Muhammad (s.a.v) madhida yozilgan. Qasida kompozitsion jihatdan “qasidai tom”da bo‘lib, u qasidada talab qilinadigan barcha unsurlarni o‘z ichiga olgan. Xususan, 1-7-baytlar qasidaning nasib, 8-9-baytlar gurezgoh, 10-20-baytlar madh, 21-33-baytlar matla’ va 34-bayt duo qismdan iborat. Baytlarda Qur’on oyatlariga iqtibos, payg‘ambar Muhammad (s.a.v) tarixiga talmeh qilingan. Qasidada insonning kibr-u havoga berilmasligi, moddiy dunyo va uning ashyolaridan voz kechish orqali qalbni poklash, haq talabida bo‘lish, haqni izlash g‘oyalari ilgari surilgan.

Devondagi keyingi qasidalar Muhammad (s.a.v) na’tida bag‘ishlangan. Payg‘ambar na’ti va madhidagi qasidalarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, bunday qasidalar ko‘p hollarda pand-nasihat, hikmat, shikoyat va qanoat mavzulari bilan yonma-yon, kamdan-kam yakka holda kelganligi aniqlangan. Bunday qasidalarda shoir quruq nasihat qilishni yoqtirmaganligi, u o‘z fikrini isbotlash uchun Qur’on oyatlari, hadislar, anbiyolar qissasidan misollar keltirib, fikr-mulohazalarini tasdiqlaganligi, bu esa qasida ichida turfa mavzular yoritilishiga sabab bo‘lib, natijada shoir ularni tahlil qilganidan so‘ng asosiy mavzuni davom ettirishga kirishganligi kuzatildi.

“*Jahondan shikoyat va payg‘ambar(s.a.v) na’tida*” nomli qasida kompozitsion jihatdan “qasidai tom” bo‘lib, u 61 baytdan iborat. Nasib shoirning “uzlatda bo‘l” murojaati bilan boshlangan. Qasidaning 1-8-baytlarida shoirning uzlat, vahdat haqidagi qarashlari o‘z aksini topgan. 9-10-baytlarda dunyo, 11-13-baytlarda ko‘ngil, iymon, 14-18-baytlarda faqirlik, 30-31-baytlarda shahodat kalimasi va uning karomati xususida shoirning fikr-mulohazalari bayon etilgan. 32-baytdan 52-baytgacha Muhammad (s.a.v)ga bag‘ishlangan. Aynan shu qismda shoir o‘zining falsafiy mulohazalarini baytlar qatiga singdirgan. 37-, 39-, 49-baytlarda payg‘ambarning sifatlari yod etilgan. Xususan, qasidaning 37-baytida Odam (a.s) Muhammad (s.a.v)ning beshigidan sut ichganligi va Idris (a.s) Rasuli akram maktabida o‘qiganligi qalamga olinib, mamduhning sifatlari oshirilgan va 39-baytda esa Muhammad (s.a.v)ni “*Sirlar olamining tarjimoni*” deb ta’riflangan. Jumladan,

۳۹. هم غیب را به عالم آشرا، پردهپوش
هم غیب را ز عالم آسرا، ترجمان
۴۰. او، سرو جویبار الهی و نفس او
چون سرو در طریقت، هم پیر و هم جوان⁴³

39. *Ham aybni badkorlar olamiga saqlovchi,
Ham g‘aybni sirlar olamidan tarjima qiluvchi.*
40. *U rabboniy irmoq boshi va uning nafasi,
Tariqatda bosh, ham qari, ham yosh.*

Madh mavzusiga bag‘ishlangan qasidalarining aksariyati kompozitsion jihatdan “qasidai tom”ga mansubligi, devonda ham hajm, ham son jihatdan ko‘pligi va bir necha matla’dan iboratligi ularning o‘ziga xos xususiyatlaridandir. “*Qozi al-Quzzot Ahmadshoh madhida*”, “*Azo ud-Davla madhida*”, “*Muzaffariddin Qizil Arslon madhida*”, “*Jaloliddin Abulfath Shirvonshoh madhida*” va boshqa qasidalar uch, to‘rt matla’dan iboratligi aniqlangan.

Shoir madh mavzulariga bag‘ishlangan qasidalarda mamduhning ichki va tashqi qiyofasini aniqroq tasvirlash uchun turfa detallardan foydalanilgan. “*در ستایش عز الدوله*” – “*A’zoldavla madhida*” bag‘ishlangan qasidada tolei baland mard yigitning sifatlari va

⁴³جهانگیر منصور. دیوان خاقانی شروانی. - تهران، ۱۳۷۵. - ص. ۲۲۳.

qismatini ko‘rish mumkin. Ushbu qasidada shoir mamduh suratini o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniqroq gavdalanirish uchun jangovar qahramonlarga xos detallardan foydalangan. Ya’ni, baytlarda mamduhning o‘tkir qilichi, gurzisining zarbi va qalqoni tasvirlangan. Jumladan,

۱. دست درافشان چو زى تيغ درفشان آورد
۲. گرز او در قلعه البرز زلزال افکند

نسر گردون را به خوان تيغ مهمان آورد
چتر او در قبه افلاک نقصان آورد

1. *Himmatli qo‘l tig‘ suratidek yorug‘lik olib keldi*
Falak burgutin tig‘ dasturxoniga mehmon qildi.
2. *Gurzisi Alburz qal‘asiga zilzila soldi,*
Qalqoni falak qubbasiga nuqson soldi.

Madh mavzusiga bag‘ishlangan qasidalar kompozitsion jihatdan tahlil qilinarkan, ularda makon va zamon tasviri qalamga olinganligi kuzatildi. Bunday qasidalarda tog‘lar, daryolar, o‘z vaqtida mashhur shahar va joy nomlari keltirilib, mamduhning ma’lum makon va zamonda borligi haqida ma’lumotlar berilgan. Xususan, “*Malik Arslon Muzaffar madhida*” yozilgan qasidada Madina yaqinidagi Safar tog‘i va “*Boku qirg‘og‘idagi Otashgoh yaqinida Buyuk Xoqon Manuchehr Shirvonshoh ovi vasfiga badiha*” nomli qasidada Boku sohillari tasvirlangan.

Zindondan, taqdirdan shikoyat qasidalarda shoirning ichki dunyosi va jamiyatga bo‘lgan voqealarga munosabati badiiy tarzda ifodalangan. “*در شکایت از روزگار و مردم*” – Taqdir va insonlardan shikoyat” mavzusiga bag‘ishlangan qasidada shoirni o‘rab turgan muhit, atrofidagi insonlarning unga bo‘lgan munosabati qalamga olingan. “*غصه*” – Har ko‘ngilda gar g‘ussa bo‘lsa, Otashin ko‘z yoshin qurbon qilar” misralari bilan boshlangan qasida “zindondan shikoyat” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, shoir zindonni badiiy tasvirlash uchun temir halqa, arra, zanjir kabi detallardan foydalangan. Xususan,

- | | |
|---------------------------------|---------------------------------------|
| ۱۰. بر دو پایم فلک ز آهن‌ها | حلقه‌ها چون دهان مار کند |
| ۱۱. این دهن‌های تنگ بی دندان | بر دو ساق من آن شعار کند |
| ۱۲. که به دندان بی‌دهان همه سال | اره با ساق میوه‌دار کند ⁴⁴ |

10. *Ikki oyig‘im falak temirlaridan*
Halqalar xuddi ilon og‘zidek
11. *Bu tor tishsiz og‘izlar*
Mening ikki to‘pig‘imga izlar solar
12. *Ki og‘izsiz tishlar hamma yil*
Mevali to‘piqqa arralar urar

Devonda qasida shaklida yozilgan marsiyalarning kompozitsion jihatdan har ikki “qasidai tomda” (8 ta) va “qasidai mujarrada” (9 ta) turi borligi aniqlangan. Bunday marsiyalar shoirning g‘amgin holatini yuzaga keltirgan tuyg‘ular silsilasidan iboratligi ochib berilgan. Marsiyalarda marhumning foni dunyodan ko‘z yumganligini tasvirlash orqali, uning insoniy fazilatlarini, ma’naviy axloqiy xislatlarini eslab, shoir hayotida tutgan o‘rni namoyon bo‘lgan.

Bobning “*Xoqoniy Shirvoniy qasidalaridagi asosiy motivlar*” deb nomlanuvchi ikkinchi faslida diniy, madh, shikoyat mavzularidagi qasidalar, shuningdek, qasida

⁴⁴جهانگیر منصور. دیوان خاقانی شروانی. – تهران، ۱۳۷۵. – ص. ۷۳.

shaklida yozilgan marsiyalardagi eng kichik birliklar turkumlashtirilgan holda o'rganilib, ularning mazmun mohiyati ochib berildi.

Xoqoniy Shirvoniyning payg'ambar madhi, na'ti, diniy uloma va shaxslarga bag'ishlab yozilgan qasidalarida "ilohiy ishq", "lo", "vahdat", "fano", "baqo", "haq talabida bo'lish", "yor vasli", "hijron" kabi motivlar tez-tez ko'zga tashlanishi ma'lum bo'ldi. Ular orasidan "ilohiy ishq" motivining ustuvorligi aniqlangan.

"Buyuk payg'ambar madhida" nomli qasidada ishq eng yaxshi gavhar – ko'ngil uning makoniligi, ko'ngil ajam surat – ishq uning tarjimoniligi qalamga olingan. "Buyuk payg'ambar (s.a.v) na'tida" nomli qasidada ilohiy ishq otash va ro'zadorga tashbihlantirilib, bu motiv paradoks holatida tasvirlangan. "Ishq xususida va Shayx ul-islom Nosiriddin Ibrohim madhida" qasidada ilohiy ishq shoirni o'zidan kechishiga sabab bo'lganligi haqidagi ma'lumot yetkazilgan. "Pand-u nasihat va payg'ambarlarning so'ngisi me'rojida" nomli qasidada ilohiy ishqni rahnamo bilib, uning nuri bilan Olloh dargohiga yetishish mumkinligi badiiy tarzda ifodalangan.

"Pand-u nasihat va payg'ambarlarning so'ngisi me'rojida" nomli qasidada "lo" ishora, ya'ni tavhid kalimasining birinchi so'zi motiv sifatida kelgan va shoir u harfiy tasvirni nazmiy qolipga solgan. Baytlarda "lo" qo'riqchi va ajdarhoga tashbihlantirilgan, shoir nazdida abadiylik kalitining tishi "lo"dan iboratligi badiiy tarzda ifodalangan. "Pand-u nasihat va buyuk payg'ambar madhida" nomli qasidada kishi tilini "lo"dan boshqasiga ochmasa, "qolu balo" vodiysiga yetishishi mumkinligi qalamga olingan.

Diniy qasidalarda "vahdat", "fano", "baqo" "yor vasli" kabi motivlar an'anaviy, "hijron" motivi esa noodatiy tarzda qalamga olingan. Xususan, "Ikki haram tuhfasini" nomli qasidada "hijron" motivi mumtoz adabiyotda tez-tez uchraydigan oshiq va mashuq orasidagi ayriliq bo'lmay, balki muazzam ka'badan uzoqlashayotgan shoirning his-tuyg'ulari, ohu zori nazmiy tarzda ifodalangan. Jumladan,

۱. الوداع ای کعبه کاینک وقت هجران آمده
دل تنوری گشته و زو دیده طوفان آمده⁴⁵

1. Salomat bo'l ey ka'ba endi hijron vaqti kelgan,

Kuygan ko'ngil o'zgardi-yu vaqt o'tmay to'fon yoshi kelgan.

Madh mavzulariga bag'ishlangan qasidalarining mazmun-mohiyati, ruhi, ohangi, maqsad va g'oyalarini umuminsoniy fikr va tuyg'ular belgilagan. Bunday mavzularga bag'ishlangan qasidalarda "adolat", "rahm-shavqat", "saxovat", "insof", "oqillik", "xiradmand bo'lish", "zulmga qarshi kurashish", "farovon hayot yaratish", "fitna", "qudrat", "hurmat", "g'am", "dard", "vafo", "baxt", "fath" kabi motivlar borligi va ular orasida "adolat" motivining ustuvorligi aniqlangan.

"Buyuk Xoqon Shirvonshoh Manuchehr bin Faridun madhida va Boqeloniy to'g'onining bog'lanishi va har bir misrada tong va'dasi" nomli qasidada Shirvonshoh Manuchehrning adolati Umar ibn Xattobning adolatiga tashbihlantirilgan. Jumladan,

⁴⁵جهانگیر منصور. دیوان خاقانی شروانی. - تهران، ۱۳۷۵، ص. ۲۵۲.

58. *Qaytdi Foruq noibi to 'g'ri tongidek adolating,*
Hisobdan ajamda arab dini yangilading.

“Vaziri A'zam Muxtoriddin madhida” nomli qasidada shoir “adolatda Saljuqiylar davlatining quyoshi bor, adolatda quyoshday marhamatli bo'l” deya e'tirof etish orqali shohga ijobiy ta'sir o'tkazmoqchi bo'lgan. “Faxriddin Shirvonshoh Manuchehr madhida” nomli qasidada shohning adolati inson tabiatidagi mizojga o'xshatilgan.

Madh mavzulariga bag'ishlangan qasidalarda “Fath” motivi orqali XII asrdagi siyosiy-ijtimoiy hayot, tarixiy g'alabalar qalamga olingan. “*دین ستایش ابوالمظفر جلال*” nomli qasidada mamduhning Darband, Shabron va rus lashkar ustidan qilgan fathi qayd etilgan. “Shirvonshoh Manuchehr madhida” nomli qasidada Shirvonshohning tig'i fathdan homilador deya mubolag'a qilish orqali shohning ko'p joylarni fath etib, zafar qozonganligi haqidagi ma'lumot yetkazilgan.

